

“ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDA INSON FOJIASI

Rixsimurod NORMATOV

Tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

risqimurodnormatov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4549-8028>

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi O‘lmas Umarbekov ijodi haqida atroflicha fikr yuritilgan. Adib asarlari yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar, tadqiqotlar o‘rganilgan. Shuningdek, “Odam bo‘lish qiyin” romanining adib ijodidagi o‘rni, obrazlar tizimi tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: roman janri, badiiy asar syujeti, obrazlar tizimi, qahramon obrazi, inson fojiasi, badiiy psixologizm, oshiq, ma’shuqa, raqib obrazi, badiiy motiv, badiiy xronotop.

ТРАГЕДИЯ ЧЕЛОВЕКА В РОМАНЕ «ТРУДНО БЫТЬ ЧЕЛОВЕКОМ»

Рихсимурод НОРМАТОВ

Базовый докторант

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

risqimurodnormatov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4549-8028>

Аннотация

В статье подробно рассматривается творчество писателя Ульмаса Умарбекова. Изучены мнения и исследования по произведениям писателя. Также анализируются место романа «Трудно быть человеком» в творчестве писателя и система образов.

Ключевые слова: жанр романа, сюжет художественного произведения, система образов, образ героя, человеческая трагедия, художественный психологизм, влюбленный, возлюбленная, образ соперника, художественный мотив, художественный хронотоп.

O‘zbek adabiyotida o‘zining sermahsul ijod namunalari bilan o‘chmas iz qoldirgan, iste’dodli adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov hayotlik paytlaridayoq tengdoshlari orasida hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan. Yozuvchi 50-60-yillardayoq o‘ziga xos ovozi bilan o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan. Tinimsiz izlanishda bo‘lgan adib o‘nlab hikoyalar, qissalar, “Odam bo‘lish qiyin” “Fotima va

Zuhra” romanlari, “Sevgim-sevgilim”, “Kimning tashvishi yo‘q”, “Urush farzandi”, “Yoz yomg‘iri”, “Oq qaldirg‘och”, “Qizimga maktublar” qissalari, “Shoshma quyosh”, “Oqar suv”, “Kuzning birinchi kuni”, “Arizasiga ko‘ra” kabi dramatik asarlar yaratdi. Bundan tashqari, ko‘plab kinofilmlar uchun ssenariylar ham yozgan. Adibning “Odam bo‘lish qiyin”, “Fotima va Zuhra”, “Sevgim-sevgilim”, “Urush farzandi”, “Qizimga maktublar” kabi asarlarida olam va odam, ma‘naviy inqirozlar, inson taqdiri, uning botinida kechgan cheksiz iztiroblar poetik ifoda etiladi. Bunday mavzular har qanday insonni befarq qoldirmaydi, o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi.

Yozuvchi ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab adiblar singari hikoyachilikda ham barakali qalam tebratgani ko‘zga tashlanadi. Adibning hikoyalarida inson ma‘naviy dunyosi go‘zalligini namoyon etuvchi tuyg‘ular mardlik, qahramonlik, olijanoblik, samimiylik ulug‘lanadi. Yozuvchi hikoyalari bo‘yicha alohida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Gulchehra Abdullayeva “O‘lmas Umarbekov hikoyalari” nomli kitobida adib hikoyalarini o‘rganar ekan, Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi hikoyalar, axloq va odobga doir hikoyalar, sevgi va muhabbat mavzusidagi hikoyalar tarzida tasniflab tahlil qiladi. Ushbu kitobga adabiyotshunos Sobir Mirvaliyev so‘zboshi yozgan. Adabiyotshunos shunday yozadi: “O‘lmas Umarbekovning sevgi mavzusidagi hikoyalarida qahramonlar o‘z sevgisi yo‘lida barcha hijron azoblarini yengib, sevgilisining muhabbatini qozona olgan qizlar, odamlarning gap-so‘zlaridan qo‘rqmay, o‘z sevgan qizini baxtiyor qilishni o‘ylagan yigit, haqiqat tantanasini o‘zining or-nomusidan ham ustun qo‘yib, yigitni qutqargan oliyjanob va jasoratli qizlardir. Adibning sevgisi g‘alabasiz tugagan qizning tushkunlikka tushmay, yana o‘sha yerda qolib mehnat qilishi, oddiy ishchiga mensimay qaragan, ammo vaqt o‘tishi bilan o‘z xatosini tushungan qizlar, o‘z husniga ishonib pand yegan go‘zal qizlar haqida qator hikoyalarida yoki kichik shingil hikoyalaridagi sevgi, muhabbat qadri yo‘lidagi kishilarimizning mehrini, vafosini yozuvchi yorqin obrazlarda ko‘rsata olganligini guvohi bo‘lamiz” [1;70].

Adibning hikoyalari haqida taniqli yozuvchilar Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmadlar oʻzlarining iliq fikr-mulohazalarini bildirishgan. Xususan, Gʻafur Gʻulom shunday deydi: “Men Oʻlmas Umarbekov ijodi diqqat qilsa arzirli deb oʻylayman. Uning aktivligi, tirishqoqligi va tinimsiz izlanishi eʼtiborimni tortdi. Oʻzim aktuallik va havaskorlikni, siyosiy oʻtkirlik va partiyaviy yuksaklikni ijodning oʻzagi deb tushunganim uchunmi, Oʻlmas asarlaridagi mavzu muhumligi, aktuallik va chuqur zamonaviylik menga yoqadi. Fikrimcha, xalqimga ham yoqsa kerak. Oʻlmas har kunlik oddiy voqealar asosida kattaroq, muhimroq gapni aytishga urinadi, odamlarimizning yuksak ijodiy fazilatlarini oddiy lekin jonli, takrorlanmas lavhalarda ochib berishga intiladi. Oʻlmas adabiyotning vazifalarini toʻgʻri tushunadi: yozuvchi ham oddiy bir odam, kishilarga xos hamma qaygʻu-alamda, hamma sevinch, koʻrkamlikda uning ham nasibasi bor. Oʻlmas oʻsha dastlabki salmoqli kitobi boʻlmish “Yurak soʻzlari” toʻplamida ham, “Qishlogʻimiz kishilari” nomli kitobida ham va konkursda mukofotga sazovor boʻlgan “Boboyongʻoq” asarida ham odamlarimiz yuragidagi, ongi va yurish-turishidagi oʻzgarishlarini, yangiliklarni koʻrsatishga harakat qiladi. Oʻlmas safsatabozlik, bayonchilik va sustlikdan qutilgan, yorqin xarakterlar yaratishga erishgan. Ular kam gapirib, koʻp harakat qiladi. Yosh yozuvchi qahramonning psixologiyasiga qalb harakatiga asosiy diqqatni qaratgan. Lekin, bu Oʻlmas tap-tayyor yozuvchi boʻlib yetishdi, degan soʻz emas. Uning baʼzi hikoyalaridagi syujet sust, bayonchilik, choʻziqlik bor, nursiz obrazlar uchrab turadi. Soʻngra, Oʻlmasda konflikt zaifligi ravshan seziladi, tasvirda obrazlilik yetishmaydi. Til boyligini oshirish ustida koʻproq ishlashini eslatib oʻtardim” [5]. Koʻrinadiki, yozuvchi ijodiga yuksak baho berish bilan birgalikda, mavjud kamchiliklarini tanqid qilib, kelajakda yetuk yozuvchi boʻlishiga ishonch bildirgan.

Shuningdek, adabiyotshunoslar L.Qayumov, S.Mamajonov, R.Inogʻomov, S.Mirvaliyevlar ham adibning hikoya va qissalari haqida maqolalar eʼlon qilishgan. Jumladan, S.Mirvaliyev: “Davr va kishilar taqdiri hikoyachiligimizning markazida turadi. Ularda hayot problematikasi kengayib, chuqurlashdi, psixologik tasvir konkret

tus oldi. Hikoyalarda xarakter yaratishga intilish ortdi. Bu hikoyalar zamonaviylik ruhida yaratilgandir. Ular orasida ahloqiy, etik problemalarga bag'ishlangan qator hikoyalar kishi diqqatini jalb etadi. Xususan, ularda insonning inson va jamiyat oldidagi burchi va vazifalari, uning qadri va o'rni, muhabbati va oilaning jamiyat taraqqiyotidagi roli masalalari ancha keng va jonli tasvirga, katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan, "Husn", "Ko'prik", "Qiyomat qarz" hikoyalari yaratuvchi inson madh etiladi. Shu bilan birga mazkur hikoyalar o'zlarining jozibadorligi, hayotiyliigi bilan ham o'quvchi qalbini rom etadi" [1;10], – deydi.

Adib qissalari haqida so'z borganda tarixiy, ishqiy sarguzasht va zamonaviy mavzularni qamrab olgani ko'zga tashlanadi. Yozuvchi qissalari xususida adabiyotshunos S.Mirvaliyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'lmas Umarbekov qissanavis sifatida ham o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan adiblar sirasiga kiradi. Uning o'nga yaqin qissalari adabiy jarayonda o'z o'rniga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi adabiy tanqidchilik tomonidan yaxshi baholangan. Jumladan, "Sevgim-sevgilim", "Jo'ra qishloq", "Cho'li iroq", "Kimning tashvishi yo'q", "Urush farzandi", "Yoz yomg'iri" va so'nggi "Qizimga maktublar" essesi haliga dovur sevib o'qilmoqda. Uning "Sevgim-sevgilim" qissasi bu boradagi ilk tajribalari mevasi bo'lishiga qaramay, 60-yillar adabiy jamoatchiligining keng bahslariga sabab bo'lgan edi. Buning boisi, qissadagi o'zgacha muammoning o'rta qo'yilgani edi" [1;72].

Epik tafakkur tizimida roman janri obrazlarining murakkabligi, voqelikning qamrab olish ko'lamining kengligi va o'nlab hikoyalarning bir syujetga jamlashi nuqtayi nazaridan o'ziga xoslik kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, roman janrida qalam tebratish, voqelikni bir nuqtada poetik idroklash ijodkordan katta mas'uliyat talab etadi. Katta asarlari bilan nom qozongan yozuvchilar ham roman janriga qo'l urar ekan, jur'atsizlik va qo'rquv hissi bo'ladi, albatta. O'.Umarbekov ham mana shunday xislatlardan holi bo'lmagani uning "Fotima va Zuhra", "Odam bo'lish qiyin" romanlarida ko'rinadi. Adib ijodida "Odam bo'lish qiyin romani"

alohida ajralib turadi. Roman mavzu, syujet, obrazlar tizimi jihatidan, ijtimoiy davrdagi turli tabaqalarga mansub odamlar hayoti va ularning fojiasi orqali butun bir davrni, ijtimoiy-siyosiy hayotni gavdalantirishi ko'zga tashlanadi. Bu haqida yozuvchi Said Ahmad shunday yozadi: "Bu kitob O'lmasning birinchi yirik asari. Nainki yosh adib, hatto yetuk, katta-katta asarlar bilan nom qozongan adiblar ham roman yozish oldidan qayta yosh yozuvchi holiga tushadilar. Roman yangi olam, yangi to'qnashuvlar, yangi taqdirlarga yozuvchini duch qiladi. Adibdan jur'atsizlik, bir oz qo'rqish tabiiy bir hol. O'lmas ham bu xislatlardan holi emas, albatta. Boshida andak qo'rqoqlik qilib turgan yosh adib sahifalar osha kuch yig'adi, dadillashadi, yaratayotgan kishilarining qiyofalarini aniq ko'ra boshlaydi. Oyoq ostiga to'kilgan tol bargidan tortib tarnovga qo'ngan musichaning erinib ku-ku-lashigacha nazaridan qolmaydi" [2;223].

Adabiyotshunoslar tomonidan roman janrining xususiyatlari, janr tabiati, syujeti va obrazlar tizmi bo'yicha fikrlar bildirilgan. Xususan, "Romanga ta'rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olish; murakkab ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi. Darhaqiqat, bu xususiyatlar aksariyat romanlarga xos, lekin janr xususiyatlarini shularning o'zi bilangina belgilash kamlik qiladi: amalda hajman qissadan farq qilmaydigan yoki qisqagina davr mobaynida kechgan voqealar tasviri bilan cheklangan romanlar ham, markazida birgina shaxs taqdiri (boshqa personajlar uning xarakterini ochishga xizmat qiladi) turgan yoki birgina syujet chizig'iga ega romanlar ham uchraydi" [4;220].

Ko'rinadiki, roman janri tabiatini belgilovchi muhim jihatlardan biri unda inson taqdirining qo'yilishi. Qahramon va jamiyat munosabati orqali hayot va inson mohiyatini anglash markaziy muammo sifatida tadqiq qilinadi. Darhaqiqat, roman janrining murakkabligi, voqelikni katta epik planda tasvirlash yozuvchidan katta

mahorat talab qiladi. O‘.Umarbekov mana shunday mas’uliyatli ishni zimmasiga olgan ijodkorlardan hisoblanadi. “Odam bo‘lish qiyin” romani adib ijodida alohida ajralib turadi. Roman hajman kichik bo‘lishiga qaramay, qahramon hayotining muayyan davri bir syujet chizig‘i bo‘ylab badiiy aks ettiriladi. Birgina qahramon taqdiri orqali katta hayotiy muammo qo‘yiladi. Asardagi barcha personajlar ana shu qahramon atrofida birlashadi. Personajlar markaziy qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladi. Romanda insonning botiniy dunyosi, ko‘ngil kechinmalari, samimiy tuyg‘ulari, orzu-umidlari, istaklari realistik yo‘sinda poetik idrok qilinadi. Roman markaziga qo‘yilgan muammo insonni o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi. Inson dunyoga kelar ekan, qismatiga yozilgan umrni yashaydi. Har bir insonning hayot yo‘li, maqsad-muddaosi turlicha bo‘lgani kabi uning sinovlari, imtihonlari ham alohida hisoblanadi. Hayotning mohiyati, insonning yashashdan maqsadi nima, degan savollar ostida izlanarkan turli qiyinchilik, to‘siqlarga duch keladi. Hayot mashaqqatlari, sinovlari, qiyinchiliklari, musibatlari qarshisida inson degan, odam degan nomni saqlay olish, vijdoniga qarshi bormaslik har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Aynan mana shunday vaziyatlarda insoniyligini yo‘qotgan Abdulla obrazi “Odam bo‘lish qiyin” romanining markazida turadi. Asarga qo‘yilgan sarlavhadayoq yozuvchi qanday g‘oyani ilgari surayotganini anglash qiyin emas. Roman sarlavhasiga inkor qilib bo‘lmaydigan tasdiq jumla tanlangan. Ayni shu jumla butun asar mazmun-mohiyatini o‘zida jamlaydi. Qolaversa, asarda keltirilgan

“Osmondagi bo‘zto‘rg‘ay

Bo‘zlamasang na bo‘lg‘ay?

Gulchehraning holini

So‘zlamasang na bo‘lg‘ay” [3;3],

epigrafi ham yozuvchi badiiy niyatini ochiqlashga yordam beradi. Ko‘rinadiki, asarga tanlangan sarlavha va epigraf orqali yozuvchi badiiy niyati oydinlashadi. Roman an’anaviy ishq-muhabbat syujeti asosiga qurilgan. Muqaddima qismida keltirilgan shoh Muslim haqidagi rivoyat roman mazmun-mundarijasida poetik asos vazifasini

bajaradi. Unda shoh Muslim qarigan chog'ida farzand ko'rgani, o'g'lining na kuchda, na aqlida tengi bo'lmagani, lekin vaqtlar o'tib uning dastidan vayron bo'lmagan uy, mamlakat qolmagani, oxir-oqibat otasining o'limiga ham sababchi bo'lib, o'zini firavn e'lon qilgani haqida hikoya qilinadi. Rivoyat orqali muallif o'quvchini roman voqealariga osongina olib kirib qo'yadi. Syujetga roman janrining muhim komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Romanchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, syujet va obraz o'z an'anaviyligini saqlab kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda "Odam bo'lish qiyin" romani syujeti va obrazlar tizimi ham tipologik ma'no kasb etadi.

Roman syujetida an'anaviy ishq-muhabbat liniyasi yetakchilik qiladi. Asar qahramoni Abdullajon Mingbuloqqa, buvisining uyiga ta'til paytlarida kelib turadi. Qishloqda yoshlikdagi o'rtog'i Gulchehrani uchratadi. Gulchehrani chiroyli va odobli qiz bo'lganini ko'rgan Abdulla unga ko'ngil qo'yadi. Shu tariqa ular ta'til tugagunga qadar uchrashib yurishadi. Endigina katta hayot ostonasiga qadam qo'ygan qahramonlar taqdirida qanday sinovlar kutib turganini bilmas edi. Oradan vaqt o'tib ikkalasi ham o'qishga kiradi. Bu orada ularning ta'til paytlaridagi uchrashuvi ham davom etadi. Shu tariqa oradan yillar o'tadi. Leningradda o'qish imkoniyati paydo bo'lgach, Abdulla ikkilanib qoladi. Uning ich-ichidan orzu qilib kelgan, bolaligida ustozlari sabab qolib ketgan qalb og'rig'i, ayni omillar ta'sirida qasd qilgan hayot o'z oyog'i bilan kelgan edi. Afsuski, Abdulla Leningradda uni nimalar kutib turganini bilmas edi. Uning hayotiga Sayyora kirib kelishi bilan butun xayollarini, rejalarini, hatto Gulchehra bilan bog'liq o'ylarini ham ostin-ustun qilib yuboradi. Umuman olganda, Abdulla bolaligidanoq, shon-shuhratga o'ch bo'lib o'sadi. Buning asosiy sababi, otasini lavozimdan ketib, kasal bo'lib yotganida atrofidagi barcha yaqinlarining munosabati o'zgaradi, mansabiga qarab muomala qila boshlaydi.

Romanda ishq-muhabbat liniyasining yetakchilik qilishi, asar markazida bir shaxs taqdirining turishi, syujet voqealari ayni obraz atrofida birlashishi va boshqa personajlar orqali Abdullajon xarakterining ochilib borilishi ko'zga tashlanadi.

Albatta, O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanidagi Abdullajon xarakterini ochishda, uning hayot yo‘li, ichki botiniy kurashlari va jamiyat bilan munosabati orqali insoniy qadriyatlar va ma’naviy tanazzul masalalari poetik ifoda etiladi. Agar romandagi ishq-muhabbat liniyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, oshiq–ma’shuqa–raqib obrazi doirasida fikr yuritish mumkin. Oshiq Abdullajon – romanning bosh qahramoni bo‘lib, u maktabni oltin medalga bitirgan, oldiga katta maqsadlar qo‘ygan va mana shu yo‘lda harakat qilayotgan yoshlardan biridir. O‘zining bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi va orzulari bilan ajralib turadi. Ammo u o‘zining maqsadlariga erishishda nafaqat ichki, balki tashqi to‘siqlarga ham duch keladi. Abdullajonning hayotidagi asosiy kurash uning ichki dunyosida kechadi. Botinidagi murakkabliklar uning jamiyat bilan o‘rtasidagi ziddiyat syujet voqealarida rivojlanib boradi. U ilm olish va halollikni qadrlaydi, lekin atrofidagi muhitda bu qadriyatlar ko‘pincha e’tiborsiz qoladi. Shu sababli, u o‘zining prinsiplariga sodiq qolish bilan birga, jamiyatdagi nohaqlik va adolatsizliklarga qarshi kurashadi. Bu kurash uning ichki dunyosidagi kurashlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi, lekin shu bilan birga, uni ruhiy jihatdan charchatadi. Abdullajonning Gulchehraga bo‘lgan muhabbati uning hayotidagi eng yorqin holatlardan biri sifatida tasvirlanadi. Gulchehra ham o‘zining orzulari va maqsadlariga erishish uchun kurashadi. Ammo ular o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat sevgi, balki xiyonat va umidsizlik kabi murakkab jarayonlar bilan to‘lib-toshib yotibdi. Abdullajonning xarakteriga ikki tomondan qarash mumkin: bir tomondan, u ma’naviy jihatdan yuksaklikka intilayotgan, lekin jamiyat tomonidan tushunilmagan, qabul qilinmagan va qadrlanmagan shaxs sifatida badiiy aks ettiriladi. Ikkinchi tomondan, o‘zining prinsiplariga sodiq qolishi va jamiyat bilan ziddiyatga kirishi uni fojiali qahramonga aylantiradi. Abdullajon – bu jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi kurashayotgan va shu bilan birga ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishga urinayotgan insonning timsoli. Uning hayoti, shaxsiyati, kurashlari, o‘quvchiga insoniy qadriyatlarning naqadar muhimligini va ular uchun kurashishning zarurligini eslatadi. Shu bilan birga, uning fojiali hayot yo‘li, jamiyatdagi ma’naviy tanazzul va

uning oqibatlarini yaqqol namoyon etadi. Abdullajonning hayotini Gulchehra bilan bo'lgan ilk uchrashuv butunlay o'zgartirib yuboradi. Oshiq va ma'shuqaning ilk uchrashuvi keng dalada sodir bo'ladi. Abdullajon tog'asi bilan bedana oviga chiqqan, Gulchehra bo'lsa jo'huri terish bilan ovora edi. Ikkovi bolaligidan birga o'sgan bo'lishsa-da, bedana ovidagi uchrashuv ilk uchrashuv sifatida tasvirlanadi. "Abdulla qizning yoniga engashdi. Engashdi-yu, unga bir qarashi bilan o'tirib qoldi.

– Gulchehra?

– Voy, sizmidingiz? – qiz ham uni tanib, beixtiyor bo'sh qo'li bilan etagini pastroq tortib qo'ydi.

Ikkalovi bir daqiqa jim qolishdi. Qiz negadir uyalib boshini eggan, Abdulla esa og'zi ochilib, unga tikilib qolgan edi. Qizning bir-biriga tutash qalin qoshlarigacha tushgan jo'xori popuklari jamalak bo'lib yopishib qolgan oppoq durrasi, qiyiq ko'zi va kichkina burni ustida osilib turgan bir tutam jingalak sochi, bir qanoti singan bedanaga achinganidanmi, yo kutilmagan uchrashuvdan uyalganidanmi titrab turgan dumaloq lablari uni lol qilib qo'ygan edi. Ikkalovining nazarida shu sukut ichida o'tgan bir daqiqa uzoq bir soatdek ko'rina boshlagan bo'lsa ham, nima deyishlarini bilmay, jim o'tirishardi" [3;22].

Gulchehra obrazi oddiy qishloq qizi bo'lib, u maktabni a'lo baholar bilan tamomlaydi. Uning bolaligidan orzusi me'mor bo'lish va qishlog'ini obodonlashtirish. Gulchehra Abdullaga bo'lgan muhabbatiga qaramay, oilaviy ahvoli sabab shaharga o'qishga ketish imkoniyatidan voz kechadi va sirtqi ta'limni tanlaydi. Uning hayotiga Abdullaning kirib kelishi va o'rtasidagi samimiy tuyg'ular va har kuni intiqib kutiladigan uchrashuvlar keyinchalik fojiaiy tus oladi. Oshiq va ma'shuqaning uchrashuv joylari asosan to'g'on boshi, yo unga yaqin katta-kichik buloqlar yaltillab turgan to'ldir, yoki bo'lmasa, olmazorning etagi edi. Shu tariqa uchrashuvlar ularni bir-biriga yana-da bog'laydi. Ammo bu sevgi, oxir-oqibatda, fojiali yakun topadi. Abdulla Leningradga o'qishga ketadi, Gulchehra esa qishloqda qoladi. U o'z orzulari va muhabbati o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'ladi. Abdulla

orzularini, shon-shuhratga to'la hayotni tanlaydi. Ayni shu nuqtada inson degan oliy tushunchaga putur yetadi. Gulchehraning xiyonatga uchrashi, og'ir vaziyatda yolg'iz qolishi uni fojiaga tomon yetaklaydi. Abdullajon boy-badavlat, har tomonlama uning hayotini yaxshi tomonga o'zgartiradigan Sayyorani tanlaydi.

Sayyora – Abdullaning o'qishiga yordam berish orqali, uning hayotida muhim rol o'ynaydi. U, bir tomondan, Abdullaning orzulariga erishishiga yordam beradi, boshqa tomondan esa, Gulchehraga bo'lgan muhabbati o'rnini to'ldiradi. Abdulla oshiq sifatida, o'zining orzulari va maqsadlariga erishish yo'lida muhabbatini qurbon qiladi. Ayni shu o'rinda yozuvchi badiiy niyati, asar g'oyasi yuzaga chiqadi. Abdulla har bir insonning taqdirida ro'y beradigan sinovlar qarshisida o'zini qanday tutishi kerakligini bilmay qoladi, inson degan nomga dog' tushiradi. U qancha o'qimasin, ilmiy ishlar yoqlamasin, olim bo'lmasin, odam bo'lmasa, bari bekor degan azaliy haqiqat bilan yuzlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Г. Ўлмас Умарбеков ҳикоялари. Монография. – Тошкент, 2007.
2. Аҳмад С. Танланган асарлар: III жилдлик. – Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018.
4. Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
5. “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1962 йил 8 сентябрь.